

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

XODJIMURATOVA DILSHODA SUNNATILLAYEVNA

ISLOM INQILOBIDAN KEYIN ERON SIYOSIY TIZIMI
EVOLYUTSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI

07.00.03 – Jahon tarixi

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Tarix fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of the Dissertation Abstract of the Doctor of Sciences (DSc)
in Historical Science**

**Оглавление автореферата доктора наук (DSc)
по историческим наукам**

Xodjimuratova Dilshoda Sunnatillayevna

Islom inqilobidan keyin Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi va
transformatsiyasi..... 3

Khodjimuratova Dilshoda Sunnatillaevna

The evolution and transformation of Iran's political system after the islamic
revolution..... 24

Ходжимуратова Дилшода Суннатиллаевна

Эволюция и трансформация политической системы Ирана после
исламской революции..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

XODJIMURATOVA DILSHODA SUNNATILLAYEVNA

ISLOM INQILOBIDAN KEYIN ERON SIYOSIY TIZIMI
EVOLYUTSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI

07.00.03 – Jahon tarixi

TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Tar487 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsuos.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdullayev Nodir Abdulxayevich

siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nuriddinov Erkin Zuhriddinovich

tarix fanlari doktori, professor

Ziyodov Shovosil Yunusovich

tarix fanlari doktori, professor

Zohidov Qobiljon Toirjonovich

tarix fanlari doktori, professor v.b.

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2024.Tar.21.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Shaxrisabz ko‘chasi, 16. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: tdshu@exat.uz; sayt: www.tsuos.uz..

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20. Tel.: (99871) 233-34-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

M.M.Is’haqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

N.R.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

S.B.Shadmanova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Eron Islom Respublikasining davlat boshqaruv tizimi jahon tarixida muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-siyosiy hamda harbiy jarayonlar ta’sirida evolyutsion rivojlanishi va siyosiy transformatsiyasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Teokratik va respublika elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan davlat modeli tashqi qarshiliklarga qaramay, izchil rivojlanishni namoyon etmoqda. Eronning shia teokratik davlat boshqaruvi tizimi, hokimiyat strukturalari va jamiyat bilan munosabatlari dinamikasi va mexanizmlari dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shia siyosiy doktrinasining joriylanishi va demokratik amaliyotlarga moslashuvi siyosiy tuzumlar evolyutsiyasini tushunishning yangi nazariy yondashuvlarini talab qilmoqda. Eron siyosiy tizimini o‘rganish Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari jamiyatlarida diniy va dunyoviy qadriyatlarning davlat boshqaruvidagi uyg‘unligi, sivilizatsion an‘analar va modernizatsiya omillarining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi.

Islom inqilobi natijasida Eronda tashkil etilgan diniy-siyosiy davlat boshqaruv tizimi keyingi davrlarda evolyutsion rivojlanish yo‘lini bosib o‘tib, siyosiy transformatsiyaga uchraganligi bilan belgilanadi. Eronning o‘ziga xos teokratik boshqaruv modeli tashqi siyosat orqali “eksport” qilinishi mintaqaviy xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda “Veloyate faqih” konsepsiyasining oliy rahbarga tayanish tamoyili institutsionallashtirgan teokratik tizimga transformatsiyasi alohida tadqiqot sifatida diniy-siyosiy hokimiyatning legitimlashtirish mexanizmlari va davlat boshqaruvining zamonaviy tashkiliy shakllarini o‘rganish imkonini beradi.

O‘zbekistonning xorijiy davlatlar, jumladan, Eron bilan o‘zaro manfaatli va konstruktiv hamkorlik olib borishi bugun tashqi siyosatimizning muhim yo‘nalishiga aylangan. “Ikki mamlakatning umumiy sivilizatsiyasi va tarixi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin”¹. Shundan kelib chiqqan holda, bu borada xorijiy davlatlar, xususan, ayni paytda mintaqaviy kuch sifatida e’tirof etilayotgan Eron Islom Respublikasi siyosiy tizimi evolyutsiyasi va transformatsiyasi, uning resurslari hamda omillarini tadqiq etish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5400-son va 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-sonli qarori

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. “Sizning tajribangizni qo‘llashdan mamnun bo‘lamiz” - Shavkat Mirziyoyev Eron prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashi haqida” / 2022-yil 17-sentyabr. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/09/17/iran/#!>

hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi, xususan, Eron ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tarixi, siyosiy tizimining evolyutsion rivojlanishi hamda xalqaro-siyosiy transformatsiyasiga oid ilmiy yo‘nalishlarda dunyoning yetakchi ilmiy va aql markazlari, ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan xalqaro loyihalar, dasturlar doirasida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Eron zamonaviy tarixiy tadqiqotlar instituti, Strategik tadqiqotlar markazi, Milliy tadqiqotlar instituti (Eron), Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi, Eron tadqiqotlari instituti (AQSH), Eron tadqiqotlari instituti (Germaniya), Avstriya fanlar akademiyasi Eron tadqiqotlar instituti (Avstriya), Sharqshunoslik instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti huzuridagi Eronni tadqiq etish “Collegium Iranicum” markazi (Rossiya), “Al-Ahrom” siyosiy va strategik tadqiqotlar markazi (Misr), “Rasana” xalqaro eronshunoslik instituti (Saudiya Arabistoni), Strategik tadqiqotlar markazi (BAA), Ijtimoiy fanlar akademiyasi (Xitoy), Eron tadqiqotlari markazi, Turkiya tashqi ishlar instituti (Turkiya), Pokiston Strategik tadqiqotlar markazi (Pokiston) islom inqilobidan keyin Eron siyosiy institutlarining shakllanishi va evolyutsiyasi tarixi, ushbu mamlakat davlatchiligi tarixida diniy va dunyoviy institutlarning o‘rni, Eronda mafkuraviy transformatsiya va hokimiyatni legitimlash masalalari kabi ilmiy muammolar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

XX asr 80-yillaridan keyin Eron siyosiy tizimining evolyutsion rivojlanishi va transformatsiyasiga oid tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olingan: 1979-yili Eronda amalga oshirilgan islom inqilobi oqibatida mamlakat siyosiy tizimining institutsional asosiga aylangan “Veloyate faqih” konsepsiyasi an’anaviy shia doktrinasining teokratik boshqaruv modeliga transformatsiyasini o‘zida aks ettirgani dalillangan (Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi, AQSH); Eron diniy-siyosiy boshqaruv tizimi zamonaviy talablarga moslashuvchan yangi tipdagi shia teokratik-respublika modeli ekanligi asoslangan (“Rasana” xalqaro eronshunoslik instituti, Saudiya Arabistoni); Eron teokratik tizimining o‘ziga xos jihati siyosiy tizimining dual xarakterida namoyon bo‘lishi, islom inqilobidan keyingi davrda davlat boshqaruvi transformatsiyaga uchragani, siyosiy isteblishmentda harbiy-siyosiy tuzilmalarning nufuzi ortgani asoslangan (Strategik tadqiqotlar markazi, Eron).

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.iichs.ir; www.risstudies.org; www.en.nrisp.ac.ir; www.caorc.org; www.rasanah-iiis.org; www.iranicum.spbu.ru; www.acpss.ahram.org.eg; www.iramcenter.org; www.foreignpolicy.org.tr; www.casseng.cssn.cn; www.ciss.org.pk va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirga qadar Eronning ichki va tashqi siyosatini o'rganish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Eron Islom Respublikasining siyosiy tizimi islom inqilobi natijasida "Veloyate faqih" konsepsiyasi asosiga qurilganligi, davlat boshqaruv apparatini teokratik va respublika elementlarini o'zida mujassamlashtirgan siyosiy institutlar uyg'unligi tashkil etishi va ushbu uyg'unlik Eronni bugungi siyosiy voqelik sharoitida faoliyat yuritayotgan teokratik davlatning yorqin namunasiga aylantirgani bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish mumkin:

Birinchi guruhga A.Haydarov, G.Yuldasheva, S.Fayzullayev kabi o'zbekistonlik olimlarning³ Eron ichki va tashqi siyosati, xalqaro munosabatlari, shuningdek, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi borasidagi ilmiy ishlarini kiritish mumkin. Xususan, mazkur tadqiqotlarda Eron ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, tashqi siyosat mahkamasining islom inqilobini eksport qilish g'oyasini targ'ib qilish yo'lidagi faoliyati hamda Tehronning Markaziy Osiyo respublikalari bilan munosabatlari, shu jumladan, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalari siyosiy fanlar doirasida o'rganilgan.

Ikkinchi guruhga M.Gods, S.Zabih, H.Bashiriya, S.Haqiqat, A.Eqboliy, F.Jahonbaxsh, M.Shafiyfur, R.Koriy, Sh.Husayn, A.Xusravpanoh, A.Dalen, S.Arjumand, E.Abrohamiyon, B.G'amariy-Tabriziy⁴ kabi eronlik olimlarning ushbu mamlakat siyosiy tizimida "Islom boshqaruvi" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, teokratik davlat tuzumida xalq boshqaruvi mexanizmlari hamda davlat mafkurasi va uning diniy-siyosiy modernizm shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-siyosiy omillari, diniy bag'rikenglik, shaffoflik va so'z erkinligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari kiritilgan. Mazkur ilmiy adabiyotlar islom inqilobidan keyin Eronning diniy-siyosiy davlat boshqaruv tizimini o'rganishda muhim ahamiyatga molik.

Uchinchi guruhda L.Avdeyeva, A.Lukoyanov, S.Aliyev, A.Fedoseenkova, N.Filin, L.Polonskaya, N.Mamedova, A.Kuznetsov, V.Klyashtorina, I.Dobrovitskiy, F.Nodirov, L.Ravandi-Fadai, N.Usmonov, V.Malushkov, K.Xromova kabi rossiyalik olimlarning⁵ islom inqilobi natijasida Eron siyosiy tizimining rivojlanish muammolari, mamlakatdagi diniy-siyosiy transformatsiya, davlat boshqaruvida teokratik va dunyoviy elementlarini birlashtirganiga oid ilmiy ishlari o'rin olgan. Mazkur tadqiqotlarda 1979-1989-yillar Eron siyosiy tizimining shakllanish davri, shuningdek, 1990-2005-yillar jamiyatda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonlari siyosiy realizm va liberalizm nazariyalaridan kelib chiqqan holda tahlil qilingan.

To'rtinchi guruhda R.Rayt, N.Keddi, B.Vilfrid, M.Dauns, B.Urkad, M.Varnaar, S.Ditto, K.Lim, V.Sandquist kabi AQSH va Yevropa davlatlari olimlarining⁶ Eron siyosiy tizimida ruhoniyyat va harbiy elitaning roli, jamiyatda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish yuzasidan konservatorlar va islohotchilar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning sabablari va oqibatlari, xalqaro sanksiyalar

³ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁴ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁵ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁶ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

natijasida harbiy-siyosiy tuzilma – Islom inqilobi posbonlari korpusi Eron siyosiy tizimi xavfsizligi va barqarorligining tayanchiga aylanganligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlari jamlangan.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida mazkur tadqiqotchilarning nazariy xulosalari va konseptual mulohazalari chuqur tahlil qilingan. Yuqoridagi ilmiy ishlarni e’tirof etgan holda ta’kidlash joizki, xorijda ushbu ilmiy muammo yuzasidan muayyan tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda islom inqilobidan keyin Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi va transformatsiyasi alohida kompleks tadqiqot sifatida ilmiy o‘rganilmagan. O‘zbekiston sharqshunosligida Eronning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari tarixiga oid qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi va transformatsiyasi siyosiy realizm va liberalizm nazariyalari nigohida mustaqil tadqiqot sifatida ilmiy tahlil etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muasssasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasidagi 10-sonli “Xorijiy tillarda tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1979-yili Eronda amalga oshirilgan islom inqilobidan so‘ng mamlakat siyosiy tizimi shakllanishi, evolyutsion rivojlanishi, diniy-siyosiy transformatsiyasi jarayonlarining institutsional va mafkuraviy xususiyatlari hamda amaliy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Mazkur maqsadga erishish uchun dissertatsiyada quyidagi vazifalar belgilandi va bajarildi:

“Veloyate faqih” konsepsiyasi Eron siyosiy tizimining asosi ekanligini ochib berish;

Eron diniy-siyosiy tizimiga oid tadqiqotlarni kompleks tahlil qilish;

teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o‘rganishga uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish;

Eron davlat boshqaruvi tizimida diniy va dunyoviy institutlarning o‘rnini ko‘rsatish;

Eron siyosiy tizimida saylovlarning o‘rni va rolini ko‘rsatib berish;

Eron hokimiyat tizimida harbiy-siyosiy tuzilmalar rolining kuchayishini tadqiq etish;

Eron davlat boshqaruvi tizimi transformatsiyasining ichki va tashqi siyosatga ta’sirini ko‘rsatib berish;

islom inqilobini eksport qilish g‘oyasining pragmatik siyosatga transformatsiyasini tahlil qilish;

davlat boshqaruv tizimi xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash masalasini ochib berish;

Eronda hokimiyatni legitimlash mexanizmlarining diniy va dunyoviy jihatlarini aniqlash;

Eron siyosiy tizimi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o‘rganish;

Eronda Oliy rahbar institutining vakolatlari va faoliyat mexanizmlari hamda davlatning diniy-siyosiy tizimi modernizatsiyasini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1979-yildan keyin ichki voqelik asosida shakllangan Eronning davlat boshqaruv tizimi belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Eronda shakllangan o'ziga xos diniy-siyosiy tizim evolyutsiyasi va transformatsiya jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil hamda muammoviy-davriy, strukturali-funksional va boshqa tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Eronning diniy-siyosiy tizimi evolyutsion rivojlanish jarayonida shakllangan o'ziga xos teokratik davlat boshqaruv modeli Islom inqilobi posbonlari korpusining institusional rolini izchil kuchaytirib, XXI asr sharoitida barqaror siyosiy-iqtisodiy rivojlanishning samaradorligini ta'minlagani, davlat va jamiyat munosabatlari mexanizmining muloqotga intilish va ijtimoiy konsensusni izlash xususiyatlariga asoslanganligi ilmiy dalillangan.

“Veloyate faqih” konsepsiyasi Eron siyosiy tizimining institusional negizi sifatida an'anaviy shia doktrinasidan diniy-siyosiy boshqaruv modeliga o'zgarishi jarayoni, davlat institutlari diniy tizim bilan uyg'unlashuvini ta'minlash mexanizmlari teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o'rganishning institusional va tarixiy-qiyosiy yondashuvlari mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning nazariy xulosalari asosida ko'rsatib berilgan.

Eronning diniy-siyosiy boshqaruvi Oliy rahbar institutiga tayanishi natijasida ruhoniyyatning moliyaviy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatni nazorat qilish vakolatlari kengaygani, teokratik tizimning dual xarakteri saylov orqali shakllantiriladigan respublika va diniy-ma'muriy institutlarning parallel faoliyatida namoyon bo'lishi hamda davlatning diniy-siyosiy tizimi modernizatsiyasiga qaramay teokratik normalar konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlardan ustunligi isbotlangan.

Hokimiyat legitimligi diniy tamoyillar bilan birga, davlat tomonidan olib boriladigan tizimli indoktrinatsiya orqali ta'minlanishi, Eron saylov tizimida demokratik jarayonlar va konservativ nazorat o'rtasida murakkab munosabat mavjudligi Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi nomzodlarni saralash orqali faqat Oliy rahbarga sodiq shaxslarning saylanishini ta'minlab kelishi ko'rsatib berilgan.

Islom inqilobini eksport qilish g'oyasining pragmatik siyosatga transformatsiyasi Eronga xalqaro maydonda ikki va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, geografik joylashuv omilini qo'llashga imkoniyat yaratgani Tehronga Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va xavfsizlik sohalaridagi aloqalarni rivojlantirib, milliy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ko'p vektorli strategiyani amalga oshirgani aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tarix fanlarda tan olingan uslub va fanlararo yondashuvlar asosida Eron Islom Respublikasi siyosiy tizimini tadqiq etish va o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy nazariy va uslubiy jihatlar aniqlangan;

1979-1989-yillarda Eron davlat siyosiy tizimi transformatsiyasi teokratik boshqaruv usullarini saqlagan holda, voqelikka moslashish imkoniyatlarini namoyish etib, Bosh vazir lavozimini tugatish orqali davlat boshqaruvi tizimi maqbullashtirilishi Erondagi teokratik rivojlanish barqarorligini ta'minlagani aniqlangan;

Eron davlat boshqaruvida diniy-harbiy elita – Islom inqilobi posbonlari korpusining ta'siri kuchayib, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki, muntazam qurolli kuchlar, razvedka xizmati va iqtisodiy faoliyatni uyg'unlashtirgan institutga aylangani hamda xalqaro sanksiyalar sharoitida yashirin iqtisodiy tizimlar orqali o'z mavqeini yanada mustahkamlab, davlat boshqaruvining markaziy elementlaridan biriga aylangani asoslab berilgan.

Eron davlat boshqaruv tizimini tadqiq etish orqali siyosiy transformatsiyaning tendensiyalari va unda diniy omilning roli va o'rni yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalar materiallarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ro'yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e'lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning materiallaridan tarix, xalqaro munosabatlar tarixi, Eron siyosiy tizimi tarixi bo'yicha darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, Eron tarixiga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida, "Eron tarixi", "Mamlakatshunoslik", "Jahon tarixi", "Mintaqashunoslik" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asrning 80-yillaridan keyin Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi va transformatsiyasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Eron siyosiy tizimida "islom boshqaruvi" konsepsiyasining mazmun-mohiyati, teokratik davlat tuzumida xalq boshqaruvi mexanizmlari hamda davlat mafkurasi va uning diniy-siyosiy modernizm shakllanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-siyosiy omillari hamda ushbu davlat boshqaruvida yuz bergan transformatsiya boshqaruvning teokratik va dunyoviy elementlarini birlashtirishning yangicha mexanizmini vujudga keltirgani borasidagi ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Xalqaro munosabatlar axborot-tahliliy markaziining axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Xalqaro munosabatlar axborot-tahliliy markazining 2025-yil 13-martdagi 01/32-sonli ma'lumotnomasi).

Natijada Eronning ichki va tashqi siyosatini belgilashda Oliy rahbarning roli, mamlakatda mavjud siyosiy institutlar va guruhlarining faoliyati borasidagi xulosalarni ilmiy asoslashga, shuningdek, muayyan muammolar bo'yicha tavsiya va takliflar tayyorlashga xizmat qilgan.

Teokratik boshqaruvning "Veloyate faqih" konsepsiyasi zamonaviy Eron siyosiy tizimining institutsional asosi sifatida an'anaviy shia doktrinasining teokratik boshqaruv modeliga transformatsiya bo'lib, respublika boshqaruvi institutlarining diniy tizim bilan uyg'unlashuvini ta'minlagani borasidagi ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 24-martdagi 02-02/02/1/758-sonli dalolatnomasi). Natijada tashqi siyosiy jarayonlarni o'rganishning axborot-tahlil bazasining takomillashishiga, mazkur sohada olib boriladigan ilmiy-tahliliy ishlarning samaradorligining oshishiga xizmat qilgan.

Islom inqilobidan keyin Eron siyosiy tizimi "Veloyate faqih" konsepsiyasi ushbu davlat boshqaruvining asosi sifatida markaziy o'ringa egaligi hamda Eron siyosiy tizimi hokimiyatning ikki xil – teologik (yashirin imom konsepsiyasi) va siyosiy (umumxalq saylovlari) legitimligiga tayanishi borasidagi ilmiy tadqiqot natijalari va xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 7-martdagi 02/103-sonli dalolatnomasi). Natijada tashqi siyosiy jarayonlarni o'rganishning axborot-tahlil bazasining takomillashishiga, mazkur sohada olib boriladigan ilmiy-tahliliy ishlarning samaradorligining oshishiga xizmat qilgan.

Eron saylov tizimida demokratik protsessual shakllar va konservativ institutsional nazorat o'rtasida murakkab munosabat mavjudligi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi saylovlarda nomzodlarni saralash va siyosiy o'zgarishlarni nazorat qilish orqali faqat Oliy rahbarga sodiq nomzodlarning saylanishini ta'minlashi, 1989-2005-yillarda parlamentda an'anaviy aristokratik elementlardan ijtimoiy tabaqa vakillariga o'tish kuzatilgan bo'lsa-da, konservatorlar institutsional mexanizmlarni saqlab qolishga erishgani borasidagi tadqiqot natijalari va xulosalardan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasi xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holda qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqish hamda siyosiy jarayonlarga oid axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashi ijroiya qo'mitasining 2025-yil 7-martdagi 01-27/109-sonli ma'lumotnomasi). Natijada partiya faoliyatini tizimli tashkil etish, jamiyatda siyosiy islohotlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat organlari o'z faoliyatida inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan boshqaruv mexanizmiga tayanish zaruriyati bo'yicha takliflar tayyorlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro darajadagi va 1 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ilmiy ish, shu jumladan, 2 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola (ulardan 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n ikki paragrafli to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya tadqiqot qismining hajmi 224 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Eron siyosiy tizimini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “Veloyate faqih” konsepsiyasining Eron siyosiy tizimi poydevori sifatidagi roli, teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o'rganishning nazariy va uslubiy yondashuvlari hamda Eron diniy-siyosiy tizimiga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili kabi masalalar tadqiq etilgan. 1979-yilga qadar konstitutsion monarxiya shaklidagi Eron davlat boshqaruv tizimiga islom inqilobi natijasida demokratik boshqaruv elementlarini saqlab qolgan holda teokratik “Veloyate faqih” konsepsiyasi joriylanishining shart-sharoitlari, uning mohiyati, konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari o'rganilgan.

Tadqiqotda dissertatsiyaning ilmiy muammosi ochib berilar ekan, 1979-yilda Oliy rahbar Ruhulloh Xumayniy tomonidan ishlab chiqilgan va Eron Islom Respublikasi siyosiy tizimining asosi bo'lgan “Veloyate faqih” konsepsiyasi hozirgi dunyoda boshqaruvning teokratik modelini amaliyotga joriylashning o'ziga xos namunasi ekanligi ko'rsatib berilgan. Diniy hokimiyatning legitimligi, ijtimoiy adolat ustuvorligi, sinfiy tabaqalanishning rad etilishi, qonun oldida barchaning tengligi va davlat boshqaruvi islom aqidalariga asoslanishi kabi mazkur konsepsiyaning asosiy elementlari ochib berilgan.

Dastlab, shia davlatchiligida “Imom boshqaruvi” sifatida shakllangan “Veloyate faqih” konsepsiyasi XX asr oxirida Erondagi joriy voqelikka moslashtirilgan holda davlat va jamiyat qurilishining asosi deb qabul qilingani va unga ko'ra Oliy rahbar instituti joriy etilganligi ko'rsatib berilgan. Ushbu

konsepsiyaning konstitutsiyaviy institutsionallashuvi tahlili natijasida, Oliy rahbar vakolatlari kengayishi va teokratik hokimiyatning teologik (yashirin imom tamoyili) va siyosiy (umumxalq saylovlari) legitimlikka ega ekanligi aniqlangan. Bunda diniy legitimlik konstitutsiyaviy-huquqiy normalardan ustunligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyada shialik ta'limotiga ko'ra davlat boshqaruvi negizini tashkil etuvchi "Veloyate faqih" konsepsiyasi Eron sharoitida teokratik boshqaruv modeliga transformatsiyasini o'zida aks ettirishi aniqlangan. R.Xumayniy tomonidan 1970-yillar boshida shakllantirilgan nazariy qarashlar tizimi mazkur konsepsiyaning genezisi ekanligi va unda siyosiy-ma'muriy hamda diniy elementlarni birlashtirgan davlat boshqaruvining teokratik modeli ko'rsatib berilgan. Oliy rahbar instituti evolyutsiyasi "Veloyate faqih" konsepsiyasining institutsionallashuvi o'zanida tahlil qilinib, R.Xumayniy yetakchiligidagi mazkur teokratik boshqaruv modeli Ali Xomana'iy davrida siyosiy voqelikka moslashgani, Oliy rahbarning diniy malakasiga qo'yiladigan talablar susaygani, siyosiy-ma'muriy vakolatlari esa kengaytirilgani aniqlangan.

Teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o'rganishda nazariy va uslubiy yondashuvlar tahlil qilinib, "dinamik muvozanat", "sekulyar adaptatsiya", "institutsional evolyutsiya", "texnologik modernizatsiya" kabi nazariy konsepsiyalar teokratik tizimlarda kechayotgan o'zgarishlarning turli jihatlarini ochib berishda metodologik asos sifatida tadqiq etilgan. Dissertatsiyada teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini tadqiq etishda kompleks metodologik yondashuv zarurligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyada Eron diniy-siyosiy tizimiga oid tadqiqotlar tahlili natijasida, G'arb sharqshunosligida diniy-siyosiy modernizmning kelib chiqishi, mohiyati va rivojlanish bosqichlari tizimli o'rganilgani, MDH respublikalari olimlari asosan davlat hokimiyati strukturasi va ichki siyosiy jarayonlarga e'tibor qaratgani, fors tilidagi tadqiqotlarda esa Eron intellektual elitasining subyektiv qarashlari aks etgani ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalarida Eron teokratik tizimining o'ziga xos jihati siyosiy tizimning dual xarakterida namoyon bo'lishi, bunda saylovlar orqali shakllantiriladigan respublika institutlari bilan diniy-ma'muriy institutlar parallel faoliyat yuritishi, diniy institutlar konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish mexanizmlaridan ustunlikka ega ekanligi va bu holat davlat boshqaruvining teokratik modelini mustahkamlashi aniqlangan. Zamonaviy Eron davlatchiligi masalasi turli ilmiy maktablarda bir biridan farqli metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilishi ta'kidlangan. Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi va transformatsiyasi, davlat boshqaruvi genezisi, diniy-siyosiy hokimiyat legitimligi va legalligi tamoyillari ayni paytga qadar ilmiy muammo sifatida kompleks tadqiq etilmagani ko'rsatib berilgan.

Oliy rahbar R.Xumayniy tomonidan 1979-yilda Eron jamiyatida amalga oshirilgan siyosiy transformatsiya, jumladan, davlat institutlarining ruhoniya bilan uyg'unlashuvi faktologik ma'lumotlarga tayangan holda Sharq mamlakatlari tarixini tadqiq etish metodlari asosida o'rganilgan. Shuningdek, Eron davlat boshqaruvida inqilobiy institutlar legitimlashuvi, xususan, Islom inqilobi posbonlari korpusi oddiy harbiy tuzilmadan siyosiy-iqtisodiy elitaga evolyutsiyasi, "Veloyate faqih"

konsepsiyasining siyosiy konyukturaga moslashtirilganligi, siyosiy isteblishment teokratiya, harbiylar va siyosiy doira vakillaridan iboratligi aniqlangan.

Ushbu faktlar asosida amalga oshirilgan gorizontal tahlil natijasida R.Xumayniy ishlab chiqqan Erondagi teokratik boshqaruv modeli mamlakatdagi joriy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikka moslashuvchan ekanligi ta'kidlangan. Eron siyosiy tizimi evolyutsiyasi islom inqilobidan keyin teokratik mafkura, ichki siyosiy raqobat, geosiyosiy tazyiq, iqtisodiy, institutsional muvozanat va jamiyatning o'zgaruvchan talablari kabi omillar ta'sirida rivojlangan. Ushbu omillar Eronning siyosiy tuzumini doimiy ravishda moslashuvchan va o'ziga xos teokratik-respublikaviy model sifatida rivojlanishini ta'minlagan.

Shu bois dissertatsiyaning birinchi bobida Eron siyosiy tizimini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida qilingan xulosalarga ko'ra, teokratik davlat modeli sifatida shakllangan Eron siyosiy tizimi Oliy rahbar institutining evolyutsiyasi bilan xarakterlanadi. Teokratik davlatlar evolyutsiyasi va transformatsiyasi G'arb va Sharq ilmiy maktablarida shakllangan nazariyalar hamda konsepsiyalar doirasida o'rganiladi. Bunday nazariy yondashuvlar teokratik tizimlarda kechayotgan o'zgarishlarning turli jihatlarini ochib beradi. Teokratik davlatlarda siyosiy tizimlar transformatsiyasi din va davlat munosabatlari evolyutsiyasiga bog'liq. Bu jarayon ichki va tashqi omillar, globallashuv ta'siri ostida kechib, uning muvaffaqiyati diniy qadriyatlar bilan demokratik prinsiplar o'rtasidagi muvozanatga bog'liq. Shu bois teokratik davlatlar siyosiy tizimi evolyutsion rivojlanishi va transformatsiyasini tadqiq etishda sharqshunoslik-eronshunoslik sohasiga oid kompleks metodologik yondashuvlar zarurligi ta'kidlanadi.

Ikkinchi bob "Eron siyosiy institutlarining evolyutsion rivojlanishi" deb nomlanib, unda Eron davlat boshqaruvi tizimida diniy va demokratik institutlarning o'rni, mazkur tizimda saylovlarning o'rni va roli hamda hokimiyat vertikalida harbiy-siyosiy tuzilmalar rolining kuchayishi kabi masalalar tadqiq etilgan. Eron Islom Respublikasining institutsional arxitekturasi boshqaruvning teokratik va respublika davlat boshqaruvi elementlarini o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos rivojlanish modelini namoyon etgani, mamlakat Oliy rahbari Eron ichki va tashqi siyosati bo'yicha qaror qabul qilish jarayonining markaziy nuqtasida turishi va mazkur qarorlarning qabul qilinishi mamlakatning turli siyosiy kuchlari ishtirokini talab qiluvchi murakkab jarayon ekanligi ta'kidlangan.

Dissertatsiyada Eron siyosiy tizimining o'ziga xos jihati sifatida respublika va teokratiya sinteziga asoslangan dualistik hokimiyat tizimi ko'rsatib beriladi. Erondagi prezident, parlament kabi respublika institutlari va Oliy rahbar, Ekspertlar kengashi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi kabi teokratik tuzilmalar o'rtasidagi vakolatlar taqsimotini o'rganish mamlakatda diniy legitimlik konstitutsiyaviy-huquqiy normalar orqali belgilab qo'yilganini ko'rsatgan.

Ushbu bobda Eron siyosiy modelining o'ziga xos teokratik-respublika shakli va boshqaruv institutlari tahlil qilinar ekan, davlat institutsional arxitekturasi boshqaruvning teokratik va respublika elementlarini mujassamlashtirgan siyosiy rivojlanish modelini o'zida namoyon etishi zikr etilgan. Davlat boshqaruvi sohasida

ko'plab vakolatlarga ega bo'lgan Oliy rahbar instituti ushbu tizimning markaziy elementi sifatida ko'rsatilgan. Mazkur Ekspertlar kengashi, Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi va Maqsadga muvofiqlik kengashi kabi teokratik organlar prezident, parlament kabi respublika boshqaruvi organlari davlat boshqaruvini o'zaro uyg'unlikda "tiyib turish va muvozanatni ushlab" tamoyiliga monand amalga oshirishi ochib berilgan.

Ikkinchi bobda dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda Oliy rahbarning maqomi, funksional vazifalari va vakolatlari atroflicha tadqiq etilgan. Qayd etilishicha, Oliy rahbar hukumat faoliyatini, jumladan, moliya jamg'armalarini, islomiy soliqlar va daromadlarini nazorat qiladi. Ruhoniyat tasarrufidagi ixtiyoriy badallar tizimi teokratik institutlarga katta moliyaviy mustaqillikni ta'minlashi ko'rsatilgan. Bunda hokimiyatning iqtisodiy bloki Erondagi davlat boshqaruvining barcha institutlariga siyosiy ta'sir ko'rsata olishi ta'kidlangan.

Eron siyosiy tizimida saylovlarning o'rni va roli tadqiqi mamlakat saylov tizimi demokratik protsessual shakllar va chuqur ildiz otgan konservativ institutsional nazorat o'rtasida murakkab munosabat mavjudligini ko'rsatgan. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, Eronda prezidentlik va parlament saylovlari muntazam ravishda o'tkazib borilsa-da, siyosiy jarayonlar nomzodlarni saralaydigan va kutilmagan siyosiy o'zgarishlarni o'z vaqtida to'xtatib qola oladigan Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi tomonidan doimo tizimli nazorat qilinadi. Bu esa xorijiy ekspertlar tomonidan "dekorativ demokratiya" sifatida baholanishi qayd etilgan.

Islom inqilobidan keyin (1980-2024-yillar) mamlakatda o'tkazilgan saylovlarning gorizont talhlili Eron siyosiy institutlarining evolyutsion rivojlanishida muhim rol o'ynaganini ko'rsatib bergan. 1979-1989-yillar siyosiy jarayonlarda ruhoniyat vakillari yetakchilik qilgani va 1989-2004-yillari esa parlamentda islohotchilar bloki ko'pchilikni tashkil etgani ko'rsatilgan. Biroq siyosiy isteblishmentdagi bunday o'zgarishlarga qaramay konservatorlar Konstitutsiyani qo'riqlash kengashi orqali o'ziga maqbul institutsional mexanizmni saqlab qolmoqda. Konstitutsiyani qo'riqlash kengashining barcha a'zolarini bevosita va bilvosita Oliy rahbar tayinlashi mexanizmi saylov jarayonlari teokratiya tomonidan to'liq nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Dissertatsiyada 2019-2024-yillar Eronda kuzatilgan keng miqyosdagi xalq norozilik namoyishlari talhlil qilinar ekan, bu jamiyatning ruhoniyat yetakchiligidagi konservatorlar bloki vakillari tomonidan amalga oshirilayotgan ichki siyosatdan jiddiy norozi ekanligini, shu jumladan, Eron siyosiy tizimi legitimligidagi inqiroz tobora chuqurlashib borayotgani qayd etiladi.

Aniqlanishicha, Islom inqilobi posbonlari korpusi iqtisodiy sanksiyalar sharoitida evolyutsion rivojlanish natijasida oddiy harbiy tuzilmadan davlatning ko'p funksiyali, transmilliy iqtisodiy konglomeratiga aylangan. Bevosita Oliy rahbarga bo'ysunuvchi ushbu tuzilma 2008-2023-yillar mobaynida "davlat ichidagi davlat" sifatida faoliyat yuritgan. Eron iqtisodida strategik ahamiyatga molik 500 dan ziyod kompaniyalar Islom inqilobi posbonlari korpusi tasarrufiga o'tgani natijasida mamlakat iqtisodining 30-35 foizini o'z nazoratiga olgani ko'rsatib

berilgan. Korpus harbiy-texnik, bank-moliya, neft-kimyo, qurilish va transport sohalarida monopol mavqega erishgani bois nafaqat harbiy-siyosiy, balki iqtisodiy aktor sifatida ham mamlakat siyosatida hal qiluvchi rol o'ynashiga olib kelgan. Davlat boshqaruvida diniy-harbiy elitaning ta'siri kuchayib borishi Korpusning siyosiy qarorlar qabul qilish, razvedka xizmati va iqtisodiy faoliyatni uyg'unlashtirgan institutga aylanishi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobidagi tadqiqot natijalari Eron siyosiy institutlarining shakllanishi va evolyutsion rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish asosida davlat boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, narrativlarini va saylov tizimining mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'sirini ko'rsatgan va ilmiy jihatdan asoslab bergan. Eron siyosiy tizimining teokratik modelida respublika boshqaruvi prinsiplari bilan diniy institutlar o'zaro ta'siri samarali davlat boshqaruvini ta'minlagani, harbiy-siyosiy elitaning davlat boshqaruvida ta'siri muntazam ortib borgani aniqlangan. Mazkur modelning o'ziga xosligi uning ichki va tashqi tahdidlarga, shu jumladan, xalqaro sanksiyalarga nisbatan barqarorligi hamda adaptivligida namoyon bo'lishi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Eronda hokimiyatni legitimlashtirish va mafkuraviy transformatsiya”** deb nomlangan uchinchi bobi Eron davlat boshqaruvi tizimi transformatsiyasining ichki va tashqi siyosatga ta'siri, islom inqilobini eksport qilish mafkurasining pragmatik siyosatga transformatsiyasi hamda Eronda hokimiyatni legitimlash mexanizmlarining diniy va dunyoviy jihatlari masalalar tadqiq etilgan. Eronda diniy-siyosiy hokimiyat boshqaruvini legitimlashtirish tizimi, xususan, R.Xumayniy hokimiyatining legitimligi diniy noiblik va ilohiy sanksiyaga tayangan bo'lsa, uning vafotidan so'ng A.Xomaniy davrida diniy legitimlik konstitutsiyaviy normalar bilan mustahkamlanganligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, XX asrning oxirida 80-yillarida Eron tashqi siyosatining mafkuraviy asosini “Islom inqilobi eksporti” konsepsiyasi tashkil etsa, 1989-yildan boshlab Tehron tashqi siyosatida pragmatik yondashuv ustunlik qilib, M.Xotamiy davrida (1997-2005-yillar) “Sivilizatsiyalar muloqoti” siyosati yuritilgani ochib berilgan.

Eron davlat boshqaruvi tizimi transformatsiyasining ichki va tashqi siyosatga ta'sirini o'rganish davomida 1989-2005-yillar davlat siyosiy tizimi transformatsiyasi teokratik boshqaruv usullarini saqlagan holda, voqelikka moslashish imkoniyatlarini namoyon etgani ko'rsatib berilgan. Xususan, qayd etilishicha, 1989-yildagi konstitutsiyaviy islohotlar Bosh vazir lavozimini tugatish va Oliy rahbarga qo'yiladigan malaka talablarini o'zgartirish orqali davlat boshqaruvi tizimini maqbullashtirishga erishilgan. Keyingi institutsional o'zgarishlar esa diniy rivojlanish barqarorligini saqlab qolgan holda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgani ta'kidlangan.

Shu bilan birga, 1990-2000-yillar mobaynida Eronda teokratik hokimiyat ustuvorligi saqlanishiga qaramay, siyosiy hayotning liberallasuvi yuz bergani, siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining faollashuvi, fuqarolarning siyosiy ishtiroki kengayishi va jamoatchilik kayfiyatining demokratlashtirish foydasiga o'zgargani ko'rsatib berilgan. Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, 1997-2005-yillar Muhammad Xotamiy prezidentligi davrida tashqi siyosiy aloqalar faollashuvi

Eronning xalqaro imiji yaxshilanishiga olib keldi, biroq siyosiy hokimiyatning bo‘linish tizimi xususiyati va muxolifat qarshiligi tufayli islohotlar mantiqiy yakuniga yetkazilmagan.

Dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda islom inqilobini eksport qilish strategiyasining evolyutsion jarayonlari o‘rganilar ekan, uning natijalariga ko‘ra, R.Xumayniy rahbarligida ishlab chiqilgan strategiya Eron tashqi siyosatida 1979-1990-yillarda markaziy o‘rin egallagan hamda uni ikki bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Xususan, birinchi bosqichda islom inqilobini musulmon davlatlariga, ikkinchi bosqichda esa dunyoning barcha mamlakatlariga tarqatish ko‘zlangani qayd etiladi. Ma’lum bo‘lishicha, mazkur strategiya Eron Konstitutsiyasida ham mustahkamlangan bo‘lib, uning amalga oshirilishi davlatning Tashqi ishlar vazirligi, Islom inqilobi posbonlari korpusi, Madaniyat va islom ishlari vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Dissertant nuqtai nazaricha, 1980-1988-yillardagi Eron-Iroq urushi Eron rahbariyatida “Islom inqilobi eksporti” strategiyasini harbiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmasligi borasida aniq xulosa shakllanishiga xizmat qilgan. Mintaqa va xalqaro maydonda Eronning mazkur strategiyasi yuzasidan hosil bo‘lgan fikr-mulohaza va yondashuvlardan kelib chiqib, R.Xumayniy rahbarligidagi Eron teokratiyasi o‘z pozitsiyasini o‘zgartirgani, islom inqilobi mafkurasini, birinchi navbatda, arab-musulmon olamiga madaniy-ma’rifiy usullarda tarqatishga usullariga e’tiborini qaratgani ochib beriladi. Xususan, haj ziyorati, madaniy almashinuv dasturlari, diplomatik kanallar orqali Eron g‘oyalarini tarqatish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Eron rahbariyati tomonidan ichki va tashqi siyosatida amalga oshirilgan transformatsion o‘zgarishlarning dastlabki bosqichi 1989-yildan so‘ng boshlanganligi qayd etilar ekan, Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniylar 1989-1997-yillarda Eron prezidenti sifatida faoliyat yuritib, Oliy rahbar A.Xomaniy bilan yaqin hamkorlikda ishlagan bo‘lsa-da, konservatorlar bloki vakillarining ichki siyosiy kursni belgilash bo‘yicha yondashuvlariga qarshi chiqqanligi zikr etiladi. Xususan, A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyni mazkur yo‘nalishdagi siyosati Eron davlat boshqaruvi tizimidagi prezident va Oliy rahbar o‘rtasidagi duumviratni transformatsiya qilishga qaratilgan sa’y-harakat sifatida xarakterlanadi.

Dissertatsiyada A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniylar Eron prezidenti lavozimidan ketganidan keyin islohotchilar lageriga o‘tib, mamlakatdagi siyosiy-mafkuraviy transformatsiya tashabbuslariga yetakchilik qilgani va bu jarayonda unga qizi Foize Hoshimiy-Rafsanjoniylar ko‘mak bergani ta’kidlanar ekan, uning mazkur siyosiy faoliyati M.Xotamiy yetakchiligidagi islohotchilar va keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlangani hamda natijada o‘z safdoshi Hasan Ruhoniylar prezidentlikka saylanishiga erishgani zikr etiladi. 1997-2005-yillardagi transformatsion o‘zgarishlar prezident M.Xotamiyni “Sivilizatsiyalar muloqoti” konsepsiyasi, shuningdek, H.Ruhoniyni 2013-2021-yillardagi pragmatik tashqi siyosati natijasida Eronning “Islom inqilobi eksporti” g‘oyasi mintaqaviy liderlikka erishish strategiyasiga transformatsiya bo‘lgani bilan asoslab beriladi.

Eronda hokimiyatni legitimlash mexanizmlarining diniy va dunyoviy jihatlarini tadqiq etish natijasida “Veloyate faqih” konsepsiyasi buning asosiy tamoyili ekanligi aniqlangan. Zero, mazkur tamoyil faqat shia ruhoniya vakillariga davlatni boshqarish huquqini berib, mamlakatda sekulyar siyosiy partiyalarning hokimiyatga kelish imkoniyatini cheklashi qayd etilgan.

Dissertantning nuqtai nazaricha, 1979-1989-yillar Oliy rahbar R.Xumayniy hokimiyatining legitimligi “diniy merosxo‘rluk (mahdaviyat)” va “ilohiy vakolat (veloyate amr)” kabi ikki asosiy omilga tayangan. Uning vafotidan so‘ng 1989-yilda Oliy rahbar A.Xomaniyning legitimligi konstitutsiyaviy islohotlar orqali ta‘minlangan. Shuningdek, Eron siyosiy elitasida Oliy rahbarning legitimligi masalasida uchta asosiy yondashuv mavjudligi ko‘rsatib berilgan: ilohiy legitimlik (M.Yazdiy); ilohiy legitimlikning ustuvorligi va xalq vakilligining ikkilamchi roli (R.Xumayniy, A.Xomaniy); xalq va ilohiy legitimlik (A.A.Hoshimiy-Rafsanjoni). Bunda siyosiy tizimda hokimiyatni legitimlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida “Imomat”, “Shahidlik” va “Mahdaviyat” g‘oyalari xizmat qilishi aniqlangan. Mazkur mexanizm aholining siyosiy faolligini oshirish va hokimiyat barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan.

“Eron siyosiy tizimi rivojlanishi masalalari” deb nomlangan to‘rtinchi bobda Eron siyosiy tizimi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari, mazkur tizim xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash hamda modernizatsiyasiga oid masalalar tadqiq qilingan. Ushbu ilmiy muammolarni kompleks o‘rganish natijasida 1979-yildan Eron rahbariyatining tashqi ta‘sir va tahdidlarga qarshi tura oladigan mustaqil iqtisodiy tizim yaratish borasidagi sa‘y-harakatlari “Qarshilik iqtisodiyoti” konsepsiyasi deb nomlangan uzoq muddatli strategiyaga asoslanganligi ko‘rsatilgan. Eronning mazkur rivojlanish modeli yetakchi davlatlarning xalqaro sanksiyalariga nisbatan davlat miqyosida umumiy qarshilikni tashkil etish imkonini bergan bo‘lsada, aholi turmush darajasini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlay olmaganligi zikr etilgan.

Shuningdek, Eronda 1979-yilda prezident Abulhasan Banisadr tomonidan “Islom iqtisodiyoti” konsepsiyasining amaliyotga tatbiq etilishi 1989-2005-yillar mobaynida A.A.Hoshimiy-Rafsanjoni, M.Xotamiy kabi pragmatik siyosatchilar tomonidan amalga oshirilgan siyosiy transformatsiya mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur‘atini juda faollashtirmaganligi mahalliy va xorijiy manbalardagi faktologik materiallarga tayangan holda atroflicha ochib berilgan.

Shu bilan birga, 1989-1994-yillar Eronda xususiylashtirish kampaniyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarida yuzaga kelgan jiddiy qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida A.A.Hoshimiy-Rafsanjoni tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning birinchi besh yillik rejasi natijalari tahlil qilinib, moliya bozorini va shu jumladan, narxlarni erkinlashtirish, ochiq iqtisodiy zonalar tashkil etish va tashqi savdo operatsiyalari ustidan davlat nazoratini susaytirish kabi amalga oshirilgan muhim chora-tadbirlar rasmiy Tehron ma‘muriyati ko‘zlagan natijalarni bermagani aniqlangan.

Dissertatsiyada tadqiq etilgan davr Eron jamiyatida hukumat tomonidan gender siyosati hamda ijtimoiy ta‘minot tizimida amalga oshirilgan moliyaviy-iqtisodiy

islohotlar oqibatida shakllangan murakkab vaziyatda Islom inqilobi posbonlari korpusining muxolifat yetakchiligida ko'tarilgan qarshilik harakatlarini bostirishga qaratilgan chora-tadbirlari alohida tahlil qilingan. Xususan, qayd etilishicha, 2009-2022-yillar mobaynida Eron siyosiy maydonida kuzatilgan mazkur tendensiyalar Eron jamiyati tub o'zgarishlarga, jumladan, diniy-siyosiy tizim XXI asr shart-sharoitlariga monand jiddiy transformatsiyaga muhtoj ekanligidan dalolat qilishi ta'kidlangan.

